



Tadqiqot **UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 IYUN  
№29**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
4-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-4**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-4**

**ТОШКЕНТ-2021**





**УУК 001 (062)**

**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 29-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ  
ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Mavlonov Asqarjon Ne'matovich, Ismoilov Bobur Asadulayevich</b> MILLIY GWARDIYA – MILLIY MANFAATLAR XIZMATIDA .....	7
<b>2. Matchonova Barno Irkinovna, Bekchanov Shaxzod Muhammad o'g'li</b> VATANPARVARLIK, MENTALITET TUSHUNCHALARING MAZMUN –MOHIYATI HAMDA FALSAFIY TALQINI. ....	9



## СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

### MILLIY GWARDIYA – MILLIY MANFAATLAR XIZMATIDA

**Mavlonov Asqarjon Ne'matovich, mayor.,**

**Ismoilov Bobur Asadulayevich, mayor.**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi

Jizzax mintaqaviy markazi o'quv-saf kurslari kurs boshliqlari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining faoliyati, huquqiy asosi o'rganilgan. Hamda Milliy gvardiyaning tashkil etilishi tarixiga ham oid ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy gvardiya, tinchlik, xavfsizlik, huquqiy asos, jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa salohiyati, milliy manfaatlar, fuqarolar xavfsizligi, terrorizm va ekstremizm.

*Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda. Shu borada O'zbekiston chegaralarining xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yurtimiz ostonasiga hech qanday baloqazoni yaqin keltirmaslik kabi hal qiluvchi vazifalar hamisha diqqatimiz markazida bo'ladi.*

**Sh.M. Mirziyoyev**

Mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi, huquqbuzarliklarning, ijtimoiy-maishiy tUSDagi jinoyatlarning oldini olish jinoyatchilikka qarshi kurash, ularga chek qo'yish, sodir etilganlarini fosh etish, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi.

Shu o'rinda Milliy gvardiya organlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Milliy gvardiya (fransuzcha "Garde Nationale", inglizcha "National Guard"), milliy posbonlar (italiancha "Guardi" – "Posbon") – turli mamlakatlarda va tarixiy davrlarda har xil qurolli tashkilotlarning nomi bo'lgan. Dastlabki organ Fransiya va AQSHda 1830-1872 yillarda tashkil etilgan, 1940 yillarda Shvetsiya Milliy gvardiyasi va Rossiya Milliy gvardiyasi qo'shinlari faoliyat yurita boshlagan.

Mamlakatimizda 1992 yil 23 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29-son qarori bilan 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 3408-son harbiy qismi negizida Milliy gvardiya brigadasi tashkil etilib, mamlakat Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufiga berilgan edi. 2017 yil avgust oyidan e'tiboran Milliy gvardiya mamlakat Qurolli kuchlari tarkibidagi mustaqil qo'shin turi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. 2019 yil yanvar oyida Ichki ishlar vazirligi Qo'riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidan chiqarilib, mamlakat Milliy gvardiyasi tarkibiga o'tkazildi.

2018 yilda ichki ishlar tizimidagi harbiy texnika oliy bilim yurti O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy texnika instituti etib, qayta tashkil etildi. Institut tomonidan yuqori malakali ofitserlar tayyorlanmoqda.

2020 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining faoliyatini tartibga solishdan iboratdir.

Milliy gvardiya faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iboratdir. Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari "O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:





-jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

-terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

-tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish;

-davlat ob'ektlarini, o'ta muhim, toifalangan ob'ektlarni hamda boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

-qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

-huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

-jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

-favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash;

qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;

chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog'ida rasmiy marosimlarni o'tkazish;

-huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

-O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo'llash rejalari bo'yicha maxsus vazifalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashish;

-Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasining qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Milliy gvardiyaning belgilangan bu vazifalarni bajarishi natijasida mamlakatimizda fuqarolarning milliy manfaatlarini himoya qilinmoqda. Shuningdek davlatimiz xavfsizligi ta'minlanmoqda.

2020 yilda O'zbekiston Amerikaning "Gallup's" jamoatchilik fikrini o'rganish instituti reytingi bo'yicha Norvegiya, Avstriya, Shveysariya, BAA bilan bir qatorda dunyodagi eng xavfsiz mamlakatlar o'ntaligiga kirdi. Mamlakatimiz terrorizm xavfi darajasi bo'yicha Global Terrorism Index reytingida 2018 yilga nisbatan o'z pozitsiyasini uch pog'onaga yaxshilab, 135-o'ringa ko'tarildi. Dunyo ko'rsatkichidagi bu ijobiy natijalarda ham Milliy gvardiyaning xizmati ahamiyatlidir. Shuningdek bugungi koronavirus pandemiyasi keng tarqalgan davrda ham mamlakatimizda aholi o'rtasida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlashda ham Milliy gvardiyaning xizmati katta ekanligini ta'kidlashimiz darkor.

Xullas, Milliy gvardiya jamoat va davlat xavfsizligini ta'minlashga, aholini turli xil terrorchilik tahdidlaridan, jinoiy va boshqa g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilishga, o'ta muhim toifalangan davlat va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlashga xizmat qilar ekan, uning bu boradagi xizmatlarini umumlashtirib, "Milliy gvardiya-milliy manfaatlarimiz himoyachisi"-deb, e'tirof etishimiz mukin.

Fordalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2017 yil — shiddatli islohotlar yili. – T.: "Adolat", 2017. – 96 b.
2. <https://lex.uz>. "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi qonuni. 2020 yil 18 noyabr.
3. <https://yuz.uz/news/> Milliy gvardiyaning huquq asoslari yaratildi.
4. Yuksalish umummilliy harakati. 2017-2020 O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi oraliq natijalari. T. "Baktriya press", 2021.-68 b.





## VATANPARVARLIK, MENTALITET TUSHUNCHALARING MAZMUN –MOHIYATI HAMDA FALSAFIY TALQINI.

**Matchonova Barno Irkinovna-**  
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi  
**Bekchanov Shaxzod Muhammad o'g'li-**  
Urganch davlat davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada vatanparvarlik, mentalitet tushunchalaring mazmun –mohiyati hamda falsafiy talqini masalalari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari muallifning shaxsiy xulosalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** vatanparvarlik, mentalitet, shaxs ma'naviy olami, erkinlik, ong, fikrlash.

Mustaqil mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi o'laroq, jamiyatimizning barcha jabhalarida munosib yutuqlar qo'lga kiritilayapti. Aholining tinch, osuda va farovon hayot kechirishini ta'minlash ana shu sa'y-harakatlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Tinchlik, osoyishtalik avvalo oiladan, mahalladan boshlanadi. SHu ma'noda, yurtimizdagi har bir aholi yashash joylarida ichki ishlar xodimlari, uchastka nozirlari, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida fuqarolarni ogohlikka da'vat etuvchi tadbirlar o'tkazib kelinayotir. Tabiiyki, inson qaerda dunyoga kelsa, ana shu er uning uchun qadrlil Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to'kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo'lmaydigan, hamma narsadan ham qimmatli dargohdir. Vatanni sevish, uni sog'inib yashash insoniyat fitratida mavjud bo'lgan nozik hisdir. Biror sabab bilan vatanini tashlab, boshqa yurtlarga ketgan kimsa eng og'ir damlarida uni qo'msab, ko'z oldiga keltirishi va tug'ilib o'sgan zamini haqida biror qayg'uli xabar eshitganda qalban ezilishi, yutuqlaridan quvonishi ham vatanga bo'lgan muhabbatning belgisidir. Tarixdan ma'lumki, birorta millat boshqa bir millatni tahqirlamoqchi yoki oyoqosti qilmoqchi bo'lsa, avvalo, uning vatanini bosib olib, vayron qilgan yoki vatanidan quvib chiqargan. O'z vatanining dushmanlar qo'lida qolganini ko'rgan millat uchun bundan ortiq xo'rlik va azob bo'lmasa kerak. Zero, Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir. SHuning uchun ham dinimiz ta'limotida ona Vatan himoyasi, millat farovonligi haqida qayg'urish Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam hadislarida ham keng yoritilgan. Xalqning boshiga og'ir kun kelganda jonini saqlash uchun vatanni tashlab qochish insoniylikka to'g'ri kelmaydi. Xalqimizda «o'zga yurtda shoh bo'lganingcha o'z yurtida gado bo'l», degan hikmatli so'z ham bor. O'z huzur-halovatini o'ylab, o'zgalarni unutgan kishi hech qachon ona Vataniga, xalqiga nisbatan sadoqatli bo'lolmaydi. Islom dinida Vatan tushunchasi keng qamrovli bo'lib, avvalo u istiqomat maskani, ya'ni uy-joy ma'nosida ishlatiladi. Islom dini ta'limotida inson o'zi yashab turgan Vatanini, dinini, oila ahlini himoya qilishi eng ulug'amallardan ekanligi ta'kidlangan. Vatan himoyasi uchun harbiylar safida turish ham dinimizda ulkan savobli amal sanaladi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam: «Bir kecha kunduz «ribot», (ya'ni dushman qarshisida turish) bir oy tutilgan nafl ro'za va o'qilgan tungi namozdan yaxshidir», – deb marhamat qilganlar (Imom Muslim rivoyati).Ulamolardan birlari aytgan edi: «Har bir kimsaga ma'lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrlil, qimmatli to'rt narsasi bordir. Bu to'rt narsaga ega bo'lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo'lurlar. Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o'zi egalik qilmog'i, tug'ilib o'sgan ona Vatani hamda asrlar bo'yi asrab-avaylab kelayotgan muqaddas dini». Hakimlar aytadilar: «Kishining vafodorligi uning o'z vatani uchun qayg'urishidan, birodarlarini sog'inishidan va umrining zoe ketkazgan lahzalariga o'kinib yashashidan bilinadi». Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi uni vatanini himoya qilishiga, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishiga hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajasida hissa qo'shishga undashi lozim. Fransuz faylasufi SHarl Monteske fikricha siyosiy hissiyotning uchta asosiy ko'rinishi bo'lib, ularning har biri u yoki bu tuzumni barqarorlashtirib turadi. Respublika sahovat va ezgulikka, monarxiya – iftixorga, despotizm – qo'rquvga suyanadi .Siyosiy va iqtisodiy qaramlik asoratidan xalos bo'lgan mustaqil O'zbekiston Respublikasi saxovat va ezgo'likka suyangan holda jamiyatni qayta qurmoqda.G'oyaviy- siyosiy maydonda milliy g'oya mafkurasi mantig'ida milliy madaniyatni, milliy ongni, milliy g'ururni asl ma'noda yoshlar dunyoqarashida shakllantirmoqda. G'oyaviy - siyosiy tarbiya yoshlarda siyosiy ongni shakllantiradi. U ijtimoiy hayotdagi siyosiy hodisalarni to'g'ri baholay bilishni o'rgatish bilan,



siyosiy ziyraklik fazilatini shakllantirib boradi. Siyosiy madaniyat ijtimoiy – siyosiy tadbirlarning maqsad va mohiyatini anglashga, jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy vaziyat va sharoitlarning tub mazmunini faxmlash darajasi hamdir. Tashqi siyosiy voqelikni anglash darajasining ortishi bilan yoshlarda asta – sekin mustaqil g‘oyaviy – siyosiy e‘tiqod, qarashlar va nazariy asoslangan hatti – harakatlar majmui tarkib topib, mustahkamlana boradi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy insonning ijtimoiy hayoti haqidagi ilmlarning vazifasi, xususiyatlariga to‘xtalib siyosiy savodxonlik, onglilik masalalariga alohida e‘tibor berish zarurligini ta’kidlagan edi. Uningcha “ Siyosiy ilm ongli faoliyat va hayot yo‘l – yo‘riqlarining turli ko‘rinishlarini, shuningdek, urf – odat, axloq, malakalar va tabiiy moyillikni ular orqali qo‘lga kiritiluvchi maqsadlarni, insonda ularning ifodalanish va vujudga kelish usullarini, ularni boshqarish usullari va saqlab qolish yo‘llarini o‘rganadi”

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajaki farovon bo'ladi.- T.: O'zbekiston, 2019.
3. Назаров Қ. Миллий истиқлол ғоясининг асосий мақсад ва вазифалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2001;

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(4-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000